

# Immigratsiya maqomidan qat'i nazar, Nyu York Shahrida sog'liqni saqlash xizmatlarini olish

## Immigrant Nyu Yorkliklar uchun savol-javob

Har bir Nyu Yorklik immigratsiya maqomi yoki to'lov qobiliyatidan qat'i nazar, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zingizga va oilangizga g'amxo'rlik qiling hamda kerakli tibbiy xizmatlarni oling. Ko'plab shahar xizmatlaridan, jumladan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan immigratsiya maqomidan qat'i nazar, barcha Nyu Yorkliklar foydalanishi mumkin.



## Sog'liqni saqlash xizmatlari

**Nyu York Shahrida (New York City, NYC) arzon tibbiy xizmatlarni qayerdan topishim mumkin?** [nychealthandhospitals.org](http://nychealthandhospitals.org) saytiga kirib yoki 844-692-4692 yoki **311** raqamiga murojaat qilib, sizga yaqin bo'lgan NYC Health + Hospitals (H+H) manzilida arzon tibbiy xizmatlarni topishingiz mumkin yoki [findahealthcenter.hrsa.gov](http://findahealthcenter.hrsa.gov) saytiga kirib, mahalliy tibbiy xizmat markaziga murojaat qiling.

## Tibbiy sug'urta

### Qanday tibbiy sug'urta tariflariga ro'yxatdan o'tishim mumkin?

Immigrant Nyu Yorkliklar ko'plab tibbiy sug'urta variantlariga ega. Nyu York Shtatida yashovchi 18 va undan kichik yoshdagi bolalar va homiladorlar immigratsiya maqomidan qat'i nazar, tibbiy sug'urta olishi mumkin. NYC Sog'liqni Saqlash va Ruhiy Gigiyena Departamentida (NYC Department of Health and Mental Hygiene) sertifikatlangan murojaat bo'yicha maslahatchilar mavjud bo'lib, ular tibbiy sug'urtaga muvofiq kelish yoki kelmasligingiz va qanday ro'yxatdan o'tishni aniqlashtirishga yordam beradi. Tafsilotlar uchun **311** raqamiga chaqiruv qiling yoki [nyc.gov/health/healthcoverage](http://nyc.gov/health/healthcoverage) manziliga kiring.

Agar siz NYC H+H manziliga borayotgan bo'lsangiz, Moliyaviy maslahatchidan tibbiy sug'urta olishingizga yordam berishini so'rang. Siz xizmatlarni afzal ko'rgan tilda, jumladan, yozma tarjimalar va shaxsan yoki telefon orqali tarjimon yordamida olish huquqiga egasiz.

Shuningdek, siz immigratsiya maqomingiz yoki arizangizga ta'sir qilmasdan, davlat tomonidan to'lanadigan tibbiy yordam kabi davlat imtiyozlaridan uzoq muddatli tibbiyot muassasasidan tashqarida foydalanish huquqiga egasiz. Agar sizda immigratsiya yuzasidan huquqiy savollar bo'lsa, o'z vaqtida va ishonchli axborot olish hamda shahar tomonidan moliyalashtiriladigan, bepul va xavfsiz immigratsiya bo'yicha yuridik yordamga bog'lanish uchun dushanbadan jumagacha soat 9:00 dan 18:00 gacha NYC immigratsiya yuridik xizmatlarining 800-354-0365 ishonch telefoniga murojaat qiling. Ishonch telefoni bepul va anonim bo'lib, yordam 200 dan ortiq tilda taqdim etiladi.

## NYC Care (NYC g'amxo'rlik)

### Men tibbiy sug'urta olish huquqiga ega emasman. Sog'liqni saqlash xizmatlarini qanday olishim mumkin?

NYC Care – bu immigratsiya maqomi yoki to'lov qobiliyati tufayli tibbiy sug'urtadan foydalana olmaydigan Nyu Yorkliklar uchun arzon va bepul xizmatlarni taqdim etadigan dasturdir. NYC Care tibbiy sug'urta tarifi emas. Lekin agar sizda NYC Care bo'lsa, siz keng qamrovli tibbiy xizmatlardan foydalanish, birlamchi tibbiy yordam provayderingizni tanlash va arzon dori-darmonlarni olish uchun a'zolik kartasini olishingiz mumkin. Barcha NYC Care xizmatlari beshta tumandagi har bir NYC H+H tibbiy markazda, jumladan, 11 ta shifoxona va o'nlab jamoat sog'liqni saqlash markazlarida mavjud.

### NYC Care narxi qancha va qanday qilib ro'yxatdan o'tishim mumkin?

NYC Care tibbiy xizmatlari oilangiz kattaligi va daromadingizga qarab arzon yoki bepul bo'ladi. NYC Care xizmatiga ro'yxatdan o'tish uchun 646-692-2273 raqamiga murojaat qiling yoki istalgan NYC H+H manzilida Moliyaviy maslahatchi bilan uchrashishni so'rang. Tafsilotlar uchun [www.nyccare.nyc](http://www.nyccare.nyc) manziliga kiring.

## Tibbiy sug'urtaga ega bo'lmagan Nyu Yorkliklar uchun shoshilinch tibbiy yordam

### Menda tibbiy sug'urta yo'q, lekin shoshilinch tibbiy yordam zarur. Unga qanday to'lashim mumkin?

Emergency Medicaid hujjatsiz yoki vaqtinchalik immigrantlar bo'lgan kam daromadli Nyu Yorkliklarga favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmatlar uchun to'lashga yordam beradi. Emergency Medicaid uchun mos keluvchi immigrant Nyu Yorkliklar dori-darmon va tibbiy xizmat provayderiga tashrif buyurish kabi favqulodda bo'lmagan xizmatlarning narxini qoplash uchun NYC Care dasturiga ham mos kelishi mumkin.

Kelajakda favqulodda vaziyat yuzaga kelganda istalgan vaqtda Emergency Medicaid dasturida ro'yxatdan o'tishingiz mumkin. Agar siz NYC H+H manziliga borayotgan bo'lsangiz, Moliyaviy maslahatchidan ro'yxatdan o'tishda yordam berishini so'rang. Siz immigratsiya maqomi yoki to'lov qobiliyatidan qat'i nazar, NYC dagi istalgan shifoxonada shoshilinch tez tibbiy yordam olishingiz mumkin. Tafsilotlar uchun 844-692-4692 yoki **311** raqamiga murojaat qiling.

## Immigratsiya nazorati va tibbiy xizmatdan foydalanish

### Men hujjatsiz immigrantman. Tibbiy xizmat provayderim Immigratsiya va Bojxona Nazorati (Immigration and Customs Enforcement, ICE) kabi federal immigratsiya organlariga men haqimda xabar bera oladimi?

Tibbiy xizmat provayderlari immigratsiya maqomidan qat'i nazar, bemorlarning shaxsiy daxlsizligini himoya qilishi kerak. Shifoxonalar va klinikalar bemor ma'lumotlarini bemorning ruxsatisiz ulashmaydi, qonunchilikda talab qilgan hollar bundan mustasno (bu kamdan-kam hollarda). NYC H+H tibbiy xizmat provayderlari immigrantlarning shaxsiy daxlsizligini qanday himoya qilishi haqida batafsil axborot olish uchun [bit.ly/letter-immigrant-new-yorkers](http://bit.ly/letter-immigrant-new-yorkers) manziliga kiring.

### Agar ICE xodimlari men tibbiy xizmat olayotgan shifoxonaga kelsa, nima qilishim kerak?

Immigratsiya organlari juda kamdan-kam holatlardan tashqari shifoxonalar va boshqa tibbiy muassasalarda huquqni qo'llash harakatlarini amalga oshira olmaydi. Agar siz kasalxonada ICE xodimlarini ko'rsangiz, ular bilan gaplashishingiz shart emas. Agar ICE xodimi shifoxona xonangiz kabi shaxsiy hududga kirishga harakat qilsa, siz eshikni ochmaslik va unda sud orderi (sudya tomonidan imzolangan huquqiy hujjat) borligini so'rash huquqiga egasiz. Tafsilotlar uchun [nyc.gov/immigrants](http://nyc.gov/immigrants) manziliga kiring va "**know your rights**" (huquqlaringizni biling) jumlasini qidiring. Agar ICE xodimi sizni yoki yaqiningizni hibsga olsa, bepul va xavfsiz yuridik yordam olish uchun 800-354-0365 raqamidagi NYC immigratsiya yuridik xizmatlari ishonch telefoniga murojaat qilishingiz mumkin.